

MAXFIYLIK SIYOSATI
My Yurist platformasi uchun
«15» avgust 2026-yilgi tahriri

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Maxfiylik siyosati (keyingi o‘rinlarda — “Siyosat”) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor Egamberdiyev Dilshodbek Oybek o‘g‘li (keyingi o‘rinlarda — “Ma‘muriyat”, “Operator”, My Yurist) tomonidan My Yurist mobil ilovasi va/yoki veb-platformasidan (keyingi o‘rinlarda — “Platforma”, “Servis”) foydalanish jarayonida shaxsiy ma‘lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish, saqlash, ulardan foydalanish, ularni berish va himoya qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Mazkur Siyosat Platforma foydalanuvchilariga, Platformada ro‘yxatdan o‘tgan va ommaviy profil joylashtirgan yuristlarga, shuningdek My Yurist qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiladigan yoki shaxsiy ma‘lumotlariga ishlov berish bilan bog‘liq hollarda Platforma bilan boshqa tarzda o‘zaro aloqada bo‘ladigan jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

1.3. Ushbu Siyosat quyidagi hujjatlar bilan birgalikda qo‘llaniladi:

- My Yurist Foydalanuvchi kelishuvlari;
- shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berishga rozilik shakllari;
- My Yurist shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berish tartibi.

1.4. Mazkur Siyosat qoidalarini bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo‘llaniladi.

2. Atamalar va ta’riflar

Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- shaxsiy ma‘lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni aniqlash imkonini beradigan axborot;
- shaxsiy ma‘lumotlar subyekti — shaxsiy ma‘lumotlar taalluqli bo‘lgan jismoniy shaxs;
- operator — shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berishni amalga oshiruvchi shaxs; mazkur Siyosat doirasida Operator yakka tartibdagi tadbirkor Egamberdiyev Dilshodbek Oybek o‘g‘li hisoblanadi;
- shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berish — shaxsiy ma‘lumotlar bilan bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish, jumladan ularni yig‘ish, yozib olish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, shaxssizlantirish, bloklash va yo‘q qilish;
- Platforma / Servis — My Yurist mobil ilovasi va veb-platformasi.

3. Shaxsiy ma‘lumotlar subyektlari toifalari

Ma‘muriyat quyidagi toifadagi subyektlarning shaxsiy ma‘lumotlariga ishlov berishi mumkin:

3.1. Platforma foydalanuvchilari — My Yurist’dan yuridik axborot olish, hujjat shablonlari bilan ishlash, savollar yuborish va Platformaning boshqa funksiyalaridan foydalanish uchun foydalanadigan jismoniy shaxslar.

3.2. Platforma yuristlari — yuridik faoliyatni amalga oshiruvchi, Platformada ro‘yxatdan o‘tgan va My Yurist yuristlar katalogida o‘zlari haqidagi ma‘lumotlarni ixtiyoriy ravishda joylashtirgan jismoniy shaxslar.

3.3. My Yurist qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiladigan yoki Platformadan foydalanish masalalari bo‘yicha Ma‘muriyat bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan boshqa jismoniy shaxslar.

4. Ishlov beriladigan shaxsiy ma‘lumotlar toifalari

4.1. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari

Platforma foydalanuvchilariga nisbatan quyidagi shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berilishi mumkin:

- familiya, ism, sharif (mavjud bo‘lsa);

- aloqa ma'lumotlari, shu jumladan telefon raqami va elektron pochta manzili, agar ular foydalanuvchi tomonidan taqdim etilsa;
- Platforma funksiyalaridan foydalanish jarayonida foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan ma'lumotlar, shu jumladan shakllar, murojaatlar, savollar va hujjat shablonlaridagi ma'lumotlar;
- Platformaning ishlashi va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnik ma'lumotlar;
- pullik funksiyalardan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlar, shu jumladan to'lov provayderlari tomonidan taqdim etiladigan identifikatorlar va to'lov operatsiyasi haqidagi ma'lumotlar.

4.2. Yuristlarning shaxsiy ma'lumotlari

Platforma yuristlariga nisbatan quyidagi shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berilishi mumkin:

- familiya, ism, sharif (mavjud bo'lsa);
- kasbi, yuridik ixtisosligi, tajribasi va faoliyat sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- professional faoliyat olib boriladigan hudud (mintaqa);
- aloqa ma'lumotlari;
- yurist tomonidan ommaviy profilda ixtiyoriy ravishda joylashtirilgan boshqa ma'lumotlar;
- akkauntidan foydalanish va Platformaning ishlashi bilan bog'liq texnik ma'lumotlar;
- pullik joylashtirish va Platformaning boshqa pullik funksiyalari uchun to'lov bilan bog'liq ma'lumotlar.

4.3. Bank kartalarining to'liq rekvizitlari Ma'muriyat tomonidan saqlanmaydi; ularga ishlov berish tegishli to'lov provayderlari tomonidan amalga oshiriladi.

4.4. My Yurist maxsus, biometrik yoki genetik shaxsiy ma'lumotlarni Platformadan foydalanish uchun majburiy ma'lumotlar sifatida so'ramaydi. Shu bilan birga, foydalanuvchi savol, murojaat, shakl yoki hujjat matniga ayrim maxsus xususiyatga ega ma'lumotlarni mustaqil ravishda kiritishi mumkin. Bunday hollarda ularga ishlov berish faqat Platformaning tegishli funksiyasini taqdim etish uchun zarur bo'lgan hajmda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yo'l qo'yilgan doirada amalga oshiriladi.

4.5. Agar foydalanuvchi yoki yurist My Yurist'ga uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini mustaqil ravishda taqdim etsa, u bunday ma'lumotlarni taqdim etish uchun qonuniy asoslar mavjudligini tasdiqlaydi va ularni taqdim etishning qonuniyligi uchun javobgar bo'ladi.

5. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishning huquqiy asoslari

Ma'muriyat shaxsiy ma'lumotlarga tegishli huquqiy asos mavjud bo'lganda ishlov beradi, jumladan:

- shaxsiy ma'lumotlar subyektining roziligi;
- tegishli Foydalanuvchi kelishuvi (oferta) aksepti va uning shartlarini bajarish zarurati;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish zarurati;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa asoslar.

6. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari

Shaxsiy ma'lumotlarga faqat My Yurist faoliyati bilan bog'liq maqsadlarda ishlov beriladi, jumladan:

- Platformaning ishlashini ta'minlash va uning funksiyalaridan foydalanish imkonini berish;
- agar tegishli funktsiya Platformada mavjud bo'lsa, foydalanuvchilar va yuristlarning akkauntlarini ro'yxatdan o'tkazish va yuritish;
- hujjat shablonlarini shakllantirish va ulardan foydalanish;
- savollar yuborish va axborot xususiyatiga ega javoblarni olish;
- yuristlarning ommaviy profillarini yaratish, joylashtirish, aks ettirish va qo'llab-quvvatlash hamda yuristlar katalogining ishlashini ta'minlash;
- yurist profillarini izlash va filtrlash imkoniyatini ta'minlash;
- Platformaning pullik funksiyalarini taqdim etish va ular uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- Platformadan foydalanish masalalari bo'yicha foydalanuvchilar va yuristlar bilan bog'lanish;
- Platformaning xavfsizligi, barqarorligi va sifatini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish.

7. Yuristlarning ommaviy foydalaniladigan shaxsiy ma'lumotlari

7.1. Yuristlar tomonidan tegishli rozilik asosida Platformadagi ommaviy profillarda joylashtirilgan shaxsiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasi mazmuniga ko'ra ommaviy foydalaniladigan shaxsiy ma'lumotlar hisoblanadi.

7.2. Bunday ma'lumotlarni joylashtirish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va profilda e'lon qilingan hajmda noma'lum doiradagi shaxslar uchun ochiqqligini nazarda tutadi.

7.3. Platforma foydalanuvchilari yuristni izlash, tanlash va tegishli yurist bilan bog'lanish maqsadlarida e'lon qilingan ma'lumotlarni ko'rishlari mumkin.

7.4. Platformaning oddiy foydalanuvchilariga tegishli shaxsiy ma'lumotlar ommaviy foydalaniladigan hisoblanmaydi va Ma'muriyat tomonidan e'lon qilinmaydi, agar subyektning o'z harakatlari yoki qo'llaniladigan qonunchilikdan boshqacha holat to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqmasa.

8. Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash

8.1. Ma'muriyat shaxsiy ma'lumotlar hajmi va ularni saqlash muddatlarini minimallashtirish prinsiplariga amal qiladi.

8.2. Shaxsiy ma'lumotlar ularni qayta ishlash maqsadlariga erishish, Platformaning tegishli funksiyasini taqdim etish, shartnomaviy va qonuniy majburiyatlarni bajarish yoki qonunchilikda yo'l qo'yilgan hollarda Ma'muriyatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan hajmda va muddat davomida saqlanadi.

8.3. Ishlov berish maqsadlariga erishilgach va keyingi ishlov berish uchun boshqa qonuniy asoslar mavjud bo'lmaganda, shaxsiy ma'lumotlar belgilangan tartibda o'chiriladi, yo'q qilinadi yoki shaxssizlantiriladi.

9. Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish

9.1. Ma'muriyat shaxsiy ma'lumotlarni sotmaydi va ularni uchinchi shaxslarga mustaqil tijorat maqsadlarida foydalanish uchun bermaydi.

9.2. Shaxsiy ma'lumotlar ishlov berish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hajmda, jumladan quyidagi shaxslarga berilishi mumkin:

- to'lov provayderlariga — to'lovlarni amalga oshirish va tasdiqlash uchun;
- texnik pudratchilarga — Platformaning ishlashi, texnik qo'llab-quvvatlanishi va xavfsizligini ta'minlash uchun;
- davlat organlari va boshqa vakolatli shaxslarga — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda.

9.3. Yuristlarning ommaviy profillariga nisbatan noma'lum doiradagi shaxslarga kirish tegishli yuristning roziligi asosida va u e'lon qilgan ma'lumotlar doirasida taqdim etiladi.

10. Shaxsiy ma'lumotlarni lokallashtirish

10.1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ularni saqlash O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlarni lokallashtirishga oid qonunchilik talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

11. Shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining huquqlari

Shaxsiy ma'lumotlar subyektlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda quyidagi huquqlarga ega:

- o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berilishi to'g'risida axborot olish;
- shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish, o'zgartirish, to'ldirish, bloklash yoki o'chirishni talab qilish;
- agar ishlov berish rozilikka asoslangan bo'lsa, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga berilgan rozilikni qaytarib olish;

- Ma'muriyatning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan vakolatli organga yoki sudga shikoyat qilish.

12. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi

12.1. Ma'muriyat shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, tarqatish va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun zarur va mutanosib tashkiliy hamda texnik choralarni ko'radi.

12.2. Shaxsiy ma'lumotlarga kirish Platformaning ishlashi va tegishli majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda cheklanadi.

13. Shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining murojaatlari

13.1. Shaxsiy ma'lumotlar subyekti Platformada ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari orqali Ma'muriyatga yozma yoki elektron shaklda murojaat yuborish huquqiga ega.

13.2. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish maqsadida Ma'muriyat murojaat qiluvchining shaxsini va uning vakolatlarini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

13.3. Murojaatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi. Agar qonunchilikda maxsus muddat belgilanmagan bo'lsa, Ma'muriyat murojaatni oqilona muddatda, biroq uni olgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunidan kechiktirmay ko'rib chiqadi.

14. Maxfiylik siyosatiga o'zgartirishlar kiritish

14.1. Ma'muriyat mazkur Siyosatga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

14.2. Siyosatning yangi tahriri My Yurist Platformasida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14.3. Siyosatning amaldagi tahriri My Yurist Platformasida joylashtiriladi.

15. Yakuniy qoidalar va aloqa ma'lumotlari

15.1. Mazkur Siyosat My Yurist Platformasida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

15.2. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor: Egamberdiyev Dilshodbek Oybek o'g'li

Elektron pochta: my.yurist.uz@gmail.com